

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/31.03.2021.Tar.05.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

RUZMATOVA SHAXODAT ABDUKAXXAROVNA

**QO‘QON XONLIGI TARIXIY DEMOGRAFIYASI VA UNING
XUSUSIYATLARI (1709-1876-yillar)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation

Ruzmatova Shaxodat Abdukaaxharovna

Qo‘qon xonligi tarixiy demografiyasi va uning xususiyatlari
(1709-1876-yillar) 3

Рузматова Шаходат Абдукаахаровна

Историческая демография Кокандского ханства и его особенности
(1709-1876 г.г.)..... 25

Ruzmatova Shakhodat Abdukakhharovna

Historical demography of the Kokand Khanate and its features
(1709-1876) 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 53

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/31.03.2021.Tar.05.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

RUZMATOVA SHAXODAT ABDUKAXXAROVNA

**QO‘QON XONLIGI TARIXIY DEMOGRAFIYASI VA UNING
XUSUSIYATLARI (1709-1876-yillar)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Tar1454 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qo'qon davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.fdu.uz) va "ZiyoNet" axborot ta'lim portali (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Shadmanova Sanavar Bazarbayevna
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Erqo'ziyev Anvarjon Ashurovich
tarix fanlari nomzodi, dotsent

Vohidov Shodmon Huseynovich
tarix fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/31.03.2021.Tar.05.05 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "25" 12 soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy, Farg'ona davlat universiteti, Tarix fakulteti, 2-qavat, majlislar zali. Tel.: (99873) 244-44-02; faks: (99873) 244-44-93; e-mail: fardu_info@umail.uz. Farg'ona davlat universiteti).

(430) Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy, ARM binosi. Tel.: (99873) 224-44-94).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "11" 12 kuni tarqatildi.
(2024-yil "11" 12 dagi 39 - raqamli reyestr bayonnomasi).



B.A.Usmonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, t.f.d., professor.

N.O.Alimova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, t.f.f.d., dotsent

M.G.Abdullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, t.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida ro‘y berayotgan globallashuv sharoitida demografik ma‘lumotlarni to‘plash va tahlil etish, bu borada maxsus izlanishlar olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, har qanday siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy jarayonlar demografik xususiyatlar bilan bog‘liq bo‘lib, barcha davlatlardagi jamiyat hayotiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Aholi sonining ortib borishi, tug‘ilish darajasining tebranishi muayyan vaqtdan so‘ng ta‘lim va sog‘liqni saqlash tizimini shakllantirishda, mehnat bozorida ish bilan bandlikda, davlatning ijtimoiy sohaga doir harajatlarida bevosita o‘z aksini topadi. Shu boisdan, demografik jarayonlar va omillarini o‘rganish, muammolarini aniqlash, yechimlari va istiqbollarni ko‘rsatib berish tobora zaruriyatga aylanib bormoqda.

Dunyoning qator yetakchi oliy ta‘lim muassasalari va ilmiy tadqiqot institutlarida aholi soni, ularning turli davrlarda ko‘payib yoki kamayib borishi, geografik taqsimlanishi, tarkibi, omillari kabi masalalar chuqur o‘rganilmoqda. Ayniqsa, AQSh va G‘arbiy Yevropaning ko‘pgina davlatlarida tarixiy demografik jarayonlar o‘rganilib, o‘z hududlariga doir natijalarni hujjatlashtiradigan va tasvirlaydigan axborot, geoaxborot tizimlarini yanada takomillashtirish borasida ko‘plab izlanishlar olib borilmoqda. Hozirgi davrda muayyan bir hudud, mamlakat, dunyo aholisining soni, yoshi kabi demografik xususiyatlarini ilmiy tadqiq etish ko‘plab davlatlar siyosatida muhim yo‘nalishlardan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Shu boisdan, demografik jarayonlarga doir ilmiy-nazariy bilimlarni yanada chuqurlashtirish, tarixiy davrlar kesimida tadqiq etish muhim o‘rin tutmoqda.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda amalga oshirilgan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy o‘zgarishlarning barchasi aholi turmush darajasini oshirish, mehnat faoliyatini yaxshilash, huquq va erkinliklarini himoya qilish, xalqning farovon turmush kechirishiga qaratildi. Ayniqsa, bugungi kunda O‘zbekistonda amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotini yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, mamlakatda aholi sonining ortib borishi, ahamiyati va demografik jarayonlarga doir masalalarga e‘tibor qaratilib, uning ilmiy asoslari, omillari va tarixiy ildizlarini chuqur o‘rganish, tahlil qilish, tegishli xulosalar chiqarish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Vatanimiz tarixida mavjud bo‘lgan har bir davlatchilik tuzumi, har qanday ijtimoiy jarayon – u g‘alaba yoki mag‘lubiyat bo‘ladimi, yuksalish yoki tanazzul bo‘ladimi – barcha barchasi xalqimiz bosib o‘tgan murakkab tarixiy yo‘lning uzviy va ajralmas qismidir. Shuning uchun ham biz tariximizning barcha bosqichlarini yaxlit holda qabul qilib, har tomonlama chuqur o‘rganishimiz zarur. O‘tmishdagi yutuq va g‘alabalardan quvvat olib, xato va mag‘lubiyatlardan saboq chiqarib yashaydigan xalq o‘zining taraqqiyot yo‘li va kelajagini to‘g‘ri belgilay oladi”¹.

Mazkur tadqiqot ishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini

¹ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – B. 288.

tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori va Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 24-dekabrda 448-son “Demografiya va iste‘mol bozorini o‘rganish markazini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy – ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tadqiqot mavzusiga oid adabiyotlarni davriy va metodologik xarakteriga ko‘ra shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga Rossiya imperiyasi hukmronligi davri va sovet hokimiyati yillaridagi tadqiqotlarni kiritish mumkin. Ikkinchi guruhni mustaqillik davrida nashr etilgan tadqiqotlar tashkil qiladi. Uchinchi guruh esa xorijiy tadqiqotchilarning asarlaridan iborat.

Birinchi guruhga mansub bo‘lgan F.Nazarov, V.Velyaminov-Zernov, A.K.Geyns, A.F.Middendorf, A.P.Xoroshxin, I.Krauze, N.N.Pantusov, A.Kun², V.P.Nalivkin va M.Nalivkina³ va boshqalarning asarlarida asosan Qo‘qon xonligining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayoti bilan bir qatorda xonlik aholisining

² Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях средней части Азии. Изд. 1. – СПб, 1821, 38 с., Изд. 2, СПб, 1873. Изд. 3 – Москва, 1968; Вельяминов-Зернов В. Исторические известия о Кокандском ханстве, от Мухаммеда Али до Худаярхана // Труды Восточного отделения Русского Археологического Общества, 1856, часть 11; O‘sha muallif. Сведения о Кокандском ханстве // Известия русского географического общества (ИРГО), 1856, кн. V, гл. XVIII; Гейнс А.К. Дорога из Семипалатинской крепости в Кашгар, Коканд и Ташкент // ИРГО, 1856, кн. X; O‘sha muallif. Управление Ташкентом при Кокандском владычестве // Собрание литературных трудов. Т. II. – СПб, 1898. – 105 с.; O‘sha muallif. Дневник 1866. Путешествие в Туркестан // Собрание литературных трудов. Т. II. СПб, 1898. – 431 с.; Миддендорф А.Ф. Очерки Ферганской долины. – СПб, 1862; Хорошхин А.П. Из дорожных заметок. От Ташкента до Коканда // Русский инвалид, 1868, №112, 209. ТС, т. 7; O‘sha muallif. Заметки о Кокане // Русский инвалид, 1869, №75, 76. ТС, т.-23; O‘sha muallif. Очерки Коканда // Туркестанские ведомости, 1872, №35; O‘sha muallif. Отрывки из дневника “Кокань” в 1867-1868 г. Туркестанские ведомости. 1874, №13; Федченко А.П. Доклад о путешествии в Кокандском ханстве // ИРГО, т. VIII (1872, отд.); O‘sha muallif. Извлечение из сведений и путешествий по Кокандскому ханству в 1871 // ИРГО, 1872, т. 8, №1 // Русский вестник, 1872, т. 98, №4; O‘sha muallif. Из Кокана // Ежегодник Туркестан. Края. – СПб, 1873, вып. 2. ТС, т. 60; O‘sha muallif. Обижуаз-писчебумажная фабрика в Коканде. В кн: Русский Туркестан. Сборник изданий по поводу политехнической выставки. – Москва, 1872. Вып. 2; O‘sha muallif. Путешествие в Туркестан. – Москва: Географ. Изд., 1950; Краузе И. О нефтяных источниках в Кокандском ханстве // Русский Туркестан. вып. 2. ТС, 1872. т. 57, т. 60; Пантусов Н. Н. О тарихи Шахрухи и других рукописях Кокандского ханства // Туркестанские ведомости, 1876, №28, 30, 37; O‘sha muallif. О податях и повинностях, существовавших в бывшем Кокандском ханстве и последнее время правления Худаярхана // Туркестанские ведомости, 1876, №16; O‘sha muallif. Данные об истории Ферганы в XIX в. // ИРГО по отделение этнографии, 1880, кн. VI; O‘sha muallif. Описание наиболее замечательных рукописей из числа приобретённых ген. лейтенантом Т.А. Колпаковским в г. Коканде // Туркестанские ведомости, 1876, №28, 37; Кун А.Л. Сообщение о Коканде // ИРГО, 1876, т. 12, №2 // Туркестанский сборник, т. 150; O‘sha muallif. Некоторые сведения о Ферганской долине // Военный сборник, 1876, т. 108, №4 // ТС, т. 117; O‘sha muallif. Очерки Кокандского ханства // ИРГО, 1876, т. 12, отд. 2-11 с.; ТС, т. 149; Шалыгин К. О зобе вообще и об эндемическом зобе в Коканде в особенности (с медико-географическим описанием Ферганской долины) // Военно-медицинский журнал, 1878. ТС, т. 225; Наливкин В.П. Краткая история Кокандского ханства. – Казань, 1886; O‘sha muallif. Положение вакуфного дела в Туркестанском крае до и после его завоевания // Ежегодник Ферганской области, 1904, I-III.

³ Наливкин В., Наливкина М. Очерк быта женщины оседлаго туземного населения Ферганы. – Казань: Типография Императорского университета, 1886. – 244 с.

o'sish darajasi, bandligi, migratsiya jarayonlari, xalq turmush tarzi, dehqonchilik, yer-mulk, savdo-sotiq munosabatlari, aholining urf-odatlar haqida ma'lumotlar berilgan.

Yuqorida keltirilgan mualliflar orasida F.Nazarov, A.P.Xoroshxin, A.P.Fedchenkoning bergan ma'lumotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, F.Nazarov Qo'qon xonligi tarixi, madaniyati, me'morchiligi, aholi mashg'uloti, oilaviy munosabatlar, xalqning urf – odatlari to'g'risida yozib qoldirgan⁴. A.P.Xoroshxin xonlikning iqtisodiy, madaniy hayoti, aholi turmush tarzi va etnografiyasiga oid qimmatli ma'lumotlarni bergan⁵. A.P.Fedchenko esa Qo'qon xonligi aholisining iqtisodiy va madaniy hayoti, bandlik darajasi, xonlik xaritasi va boshqa ma'lumotlarni yozib qoldirgan⁶.

Shuningdek, N.N.Pantusovning tadqiqotida yer-suv munosabatlari, undan foydalanish tartibi, dehqonchilik, soliqlar va boshqa ma'lumotlarni o'rganish mumkin⁷. Tadqiqotchi K.Shaligin esa Qo'qon xonligi aholisi orasida tarqalgan kasalliklar haqida tadqiqot olib borgan⁸. V.V.Nalivkin o'z asarlarida Turkiston xalqining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, turmush tarzi, kundalik yumushlariga oid qiziqarli ma'lumotlarni yozib qoldirgan⁹.

Yuqoridagi asarlarning ba'zilar mavjud mafkura ta'sirida yozilgan bo'lsa-da, har holda ular orqali O'rta Osiyo, xususan, Qo'qon xonligi va unda kechgan murakkab siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy jarayonlarning ba'zi jihatlari ilmiy muomalaga kiritilgan.

Sovet davri tarixchi olimlari V.V.Bartold, P.P.Ivanov, R.N.Nabiyev, A.L.Troitskaya, A.Juvonmardiyev, T.K.Beysembiyev, S.S.Gubayeva, X.N.Bababekov, Sh.X.Vohidov¹⁰ va boshqalar asarlarida Qo'qon xonligi iqtisodiy,

⁴ “Записки о некоторых народах и землях Средней Азии” Филиппа Назарова (1813-1814). История Узбекистана в источниках. – Ташкент: Фан, 1988. – 256 с.

⁵ Хорошхин А.П. Сборник статей, касающихся до Туркестанского края. – СПб.: Типография и хромофотография А. Трошеля, 1876.

⁶ Федченко А.П. В Кокандском ханстве. Известия общества любителей естествознания, антропологии и этнографии. – Москва, 1875, т. XI, вып. 7; O'sha muallif. Объяснительная записка к карте Кокандского ханства и прилегающих стран. – Москва, 1872. Т.С, т. 374.

⁷ Пантусов Н.Н. Архив Кокандского хана // Туркестанские ведомости, 1876, №12.

⁸ Шалыгин К. О зобе вообще и об эндемическом зобе в Коканде в особенности (с медико-географическим описанием Ферганской долины) // Военно-медицинский журнал, 1878. Т.С, т. 225.

⁹ Наливкин В.П. Туземцы раньше и теперь. – Ташкент, 1913. – 144 с.

¹⁰ Бартольд В.В. История изучения Востока в Европе и России. Лекции. Изд. 2. – Москва, 1925. Глава XIII посвящена изучению русскими учёными среднеазиатских ханств; O'sha muallif. Сарт / Сочинение, Том 2, ч.2. – Москва: Наука, 1964. – 661 с.; O'sha muallif. Ташкент / Сочинения. Т.3 – Москва: Наука, 1965. – 713 с.; Иванов П.П. Казахи и Кокандское ханство (к истории их взаимоотношений в начале XIX века). – Москва: Академия наук СССР, 1939. – 38 с.; Набиев Р.Н. Уникальный источник по истории Кокандского ханства // Известия АН Узб. ССР, 1943, №4. О сочинении Кокандца Джунаид муллы “Тарихи Джаханнамаи”, XIX в.; O'sha muallif. Ташкентское восстание 1847 г. и его социально-экономические предпосылки. – Ташкент: Фан, 1996. – 83 с.; Чикаев Х.Ф. К аграрному вопросу и положение дехкан в Кокандском ханстве // Труды Узбекского государственного Университета, Новая серия, Самарканд, 1947, №39; Троицкая А.Л. Заповедники Курук Кокандского хана Худаяра / Сборник госуд. Публичной библиотеки им. Салтыкова-Щедрина, 1955, Вып. III; O'sha muallif. Архив Кокандских ханов XIX в. // Труды Публичной библиотеки им. Салтыкова-Щедрина, 1957, т. 11; Жувонмардиев А. Ценный документ по истории Кокандского ханства // Известия АН Узб ССР. Серия общественных наук, 1958, №3; Бейсембиев Т.К. Легенда о происхождении Кокандских ханов как источник по истории идеологии в Средней Азии. В сб. Казахстан, Средняя и Центральная Азия в XVI-XVIII вв. – Алма-Ата, 1983. – С. 114; Губаева С.С. Этнический состав населения Ферганы в конце XIX-начале XX в. (по данным топонимии) – Ташкент: Фан, 1983. – 104 с.; O'sha muallif. Горные таджики Каратегина в Ферганской долине (конец XIX – начале XX в.) – // Советская этнография. №

ijtimoiy, madaniy hayoti, aholi turmush darajasi va mashg'ulotlariga oid ma'lumotlar uchraydi.

V.V.Bartoldning Qo'qon xonligi tarixiga oid tadqiqotlarida hududning aholisi, madaniyati to'g'risida ko'plab ma'lumotlar mavjud¹¹. P.P.Ivanovning asarida esa o'sha davr tarixiy muhitining alohida xalqlar hayotiga ta'siri, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar va Qo'qon xonligining tashkil topishi, chegaralari haqida ma'lumotlar yozib qoldirilgan¹².

R.N.Nabiyev asarida Qo'qon xonligida qipchoqlar, ularning tarkibi, ularning xonlik siyosiy hayotiga ta'siri, xalq qo'zg'olonlariga doir ma'lumotlar berilgan¹³. Shuningdek, Toshkent hududining xonlik tarkibiga qo'shib olinishi, mulkchilik va dehqonchilik shakllari va ularni boshqaruv usuli, aholi maishiy turmush tarziga oid materiallar o'z ifodasini topgan.

X.F.Chikayev xonlikda yuz bergan iqtisodiy jarayonlar, yer egaligi, dehqonchilik munosabatlari to'g'risida ma'lumotlar bergan¹⁴. A.L.Troitskaya tadqiqotida xonlikdagi agrar munosabatlarga oid hujjatlarning nusxalari, ularning rus tiliga tarjimasi, xonlikdagi turli toifadagi yerlar, Xudoyorxonning "xos yerlari", XIX asrda O'rta Osiyo jamiyatida sodir bo'lgan ijtimoiy – iqtisodiy hayotga oid qiziqarli ma'lumotlar aks etgan¹⁵.

A.Juvonmardiyevning tadqiqotida Farg'ona vodiysining yer-suv, dehqonchilik munosabatlari, yer berish tartibi arxiv materiallari asosida yoritilgan¹⁶. S.S.Gubayevaning tadqiqotida millatlar o'rtasidagi o'zaro ijtimoiy, iqtisodiy munosabatlar, migratsiya jarayonlari, aholining etnik tarkibi haqida so'z yuritilgan¹⁷. X.N.Bobobekov va Sh.X.Vohidovlarning ilmiy tadqiqotlari tahliliy ma'lumotlarga boyligi bilan ajralib turadi¹⁸.

Sovet hokimiyati yillarida Qo'qon xonligi tarixi bo'yicha yaratilgan asarlar hukmron mafkura manfaatlaridan kelib chiqib sinfiylik tamoyillariga bo'ysundirilgan edi. Shunday bo'lsa-da, Qo'qon xonligida kechgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan.

Ikkinchi guruhga mansub adabiyotlar mualliflari X.N.Bobobekov, Sh.X.Vohidov, O.M.Masaliyeva, G.A.Agzamova, V.Ishquvvatov, Z.A.Ilhomov,

1. 1987. – С. 87; O'sha muallif. Население Ферганской долины в конце XIX-начале XX вв. – Ташкент: Фан, 1991. – 130 с.

¹¹ Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. – Ленинград: Изд. АН СССР, 1927. – 256 с. ; O'sha muallif. История Коканда и Ферганской долины. Сочинения. Том III. – Москва: Наука, 1965. – 713 с.

¹² Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии (XVI-середина XIX века). – Москва: Восточная литература, 1958. – 248 с.

¹³ Набиев Р.Н. Из истории Кокандского ханства. – Ташкент: Фан, 1973. – 388 с.

¹⁴ Чикаев Х.Ф. К аграрному вопросу и положение дехкан в Кокандском ханстве // Труды Узбекского гос. Ун-та, Новая серия. – Самарканд, 1947, №39. – С. 11.

¹⁵ Троицкая А.Л. Материалы по истории Кокандского ханства. (По документам архива Кокандских ханов) – Москва: Наука, 1969. – 154 с.; Унинг o'zi. Каталог архива Кокандских ханов XIX века. – Москва: Наука, 1968. – 582 с.

¹⁶ Жувонмардиев А. XVII-XIX асрларда Фарғонада ер-сув муносабатларига доир. – Тошкент: Фан, 1965. – 182 б.

¹⁷ Губаева С.С. Ферганская долина (Этнические процессы на рубеже XIX – XX вв.). – Саарбрюккен, Германия: Lap Lambert, 2012. – 261 с.

¹⁸ Бабабеков Х.Н. Историческая литература о Кокандском ханстве. Русская историческая литература 60-70-х годов XIX века. Дис. канд. ист. наук. – Ташкент: ИИ АН Узб ССР, 1977. – 168 с.; Вахидов Ш.Х. Аваз Мухаммад Аттар Хукандий и его сочинение "Тарихи жахонномаи". Исследование, перевод, примечания. Дис. канд. ист. наук. – Ташкент: ИВ АН РУз., 1990. – 167 (+250) с.

Sh.Mahmudov, U.S.Abdullayev, Ya.Dadaboyev, B.M.Babadjanov va boshqalarning tadqiqotlarida¹⁹, Sh.Mahmudov, G.Sultonova, N.Allayevaning birgalikda bajargan monografiyalarida²⁰ xonlik tarixining turli masalalari, Turkiston xalqlarining Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurashi, xalq harakatlari va ularning ijtimoiy-siyosiy asoslari, tarixiy shaxslar haqida ma'lumotlar mavjud. Shuningdek, Qo'qon xonligi ma'muriy boshqaruv tizimi, manbashunosligi kabi masalalar o'z ilmiy talqinini topgan. Shu bilan birga mualliflar tomonidan Qo'qon xonligi hududi, aholisi, etnik tarkibi, bandligi darajasi, migratsiya jarayonlari va ularning aholi hayotiga ta'siri, xalqning turmush darajasi, mashg'ulotlari, dehqonchilik munosabatlari masalalariga ham e'tibor qaratilgan.

Mustaqillik davriga oid bo'lgan ilk tadqiqotlardan biri sifatida X.N.Bobobekovning izlanishlari natijalarini qayd etish mumkin. X.N.Bobobekov tadqiqotlarida xonlikda yuzaga kelgan xalq qo'zg'olonlari, hududning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayotiga doir masalalari keng o'rin olgan.

Sh.X.Vohidov Qo'qon tarixchilari asarlari mazmunini yoritib beruvchi bir necha ilmiy tadqiqotlarga ega muallifdir. Uning tadqiqotlarida mazkur ilmiy ishga taalluqli bo'lgan xonlik aholisi etnik tarkibi, joylashuvi, mashg'ulotlari, xonlik siyosiy hayotida qabila-urug'larning o'rni va boshqa qimmatli ma'lumotlar o'rin olgan.

U.S.Abdullayev o'z ilmiy tadqiqotida XIX – XX asr boshlarida Farg'ona vodiysi aholisining etnik tarkibi va joylashuv xususiyatlari, xo'jalik faoliyati

¹⁹ Бабабеков Х.Н. Народные движения в Кокандском ханстве и их социально-экономические и политические предпосылки (XVIII-XIX вв.) Дис. докт. ист. наук. – Ташкент, 1991. – 303 с.; O'sha muallif. Восстание Пулатхана. – Ташкент: Научно-исследовательский институт педагогических знаний Узбекистана им. Кары-Ниязова, 1996. – 135 с.; Этот автор. Фергана и Кокандское ханство. История цивилизаций Центральной Азии. – Ташкент, 2003, том V. – С. 71-81; O'sha muallif. История Коканда. – Ташкент: Фан, 2006. – 242 с.; Вохидов Ш.Х. Сочинение Фазли Фергани “Умарнома” // Адабий мерос, №3, 1991; O'sha muallif. Кўкон хонлиги ва Бухоро амирлигида унвон ва мансаблар. – Тошкент: Фан, 1996. – 180 б.; O'sha muallif. Развитие историографии в Кокандском ханстве в конце XIX начале XX века. Дис. докт. ист. наук. – Ташкент: ИВ АН РУзб, 1998. – 315 с.; Вохидов Ш., Холикова Р. Марказий Осиё давлатларида бошқарув тарихидан. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – 165 б.; O'sha muallif. Amir Nasrullohning Qo'qon xonligiga 1842-yilgi yurishi haqida (sabab, bahona va oqibatlar) / Farg'ona vodiysi tarixi yangi tadqiqotlarda (Respublika ilmiy-anjuman materiallari). – Farg'ona, 2009. – 9 б.; O'sha muallif. Qo'qon xonligida tarixnavislik. – Toshkent: Akademiashr, 2010. – 313 б.; Масалиева О.М. История Бухарского, Хивинского, Кокандского ханств в англо-американской историографии XX века. Дис. канд. ист. наук. – Ташкент, 1999. – 168 с.; Агзамова Г.А. Ремесло и торговля в ханствах Средней Азии. Дис. докт. ист. наук. – Ташкент: ИИ АН РУзб, 2000. – 348 с.; O'sha muallif. Города и городская жизнь Узбекистана в XVI – первой половине XIX веков. Автореферат докт. дисс. – Ташкент: ИИ АН РУзб, 2000. – 50 с.; Ишқувватов В. Кокандско-Российские дипломатические отношения в историографии второй половины XX века. Дис. канд. ист. наук. – Ташкент, 2003; Илхомов З.А. Алимкул Амирлашкар и его роль в политической истории Кокандского ханства. Дис. канд. ист. наук. – Ташкент, 2004. – 156 с.; Махмудов Ш. Устройство местного самоуправления в Кокандском ханстве // Жамият ва бошқарув. 2004, №1; O'sha muallif. Кўкон хонлигининг маъмурий бошқарув тизими (1709-1876 й.). Тарих фанлари номзодлик дисс. – Тошкент, 2007. – 166 б.; Абдуллаев У.С. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар. Тарих фан.докт.дисс. – Тошкент, 2006. – 321 б.; Дадабоев Я. Қатағон депараси. (Катаганская часть г. Коканда и предместье). Фарғона, 2006; O'sha muallif. Хўканди латиф маҳаллалари ва кўчаларининг номланиш тарихи. – Фарғона, 2007; O'sha muallif. Худоёрхон ўрдаси. – Наманган: Наманган, 2016. – 195 б.; O'sha muallif. Хўканди латиф манокіби. – Тошкент: Мовароуннахр, 2018. – 640 б.; Бабаджанов Б.М. Кокандское ханство: власть, политика, религия. – Токио – Ташкент, 2010. – 744 с.

²⁰ Султонова Г., Аллаева Н., Махмудов Ш. Ўрта Осиё халқларининг этник тарихи ва минтақада юз берган демографик жараёнларнинг манбаларда акс этиши (XVI-XIX аср биринчи ярми) / Масъул муҳаррир: Алимова Д.А., Аширов А.А. – Тошкент, 2011. – 128 б. (Кўкон хонлигига оид маълумот 62-73; 96-106-бетлар).

sohasidagi o'zaro munosabatlar, savdo-sotiq aloqalari, turar joy, oilaviy urfodatlarda etnik jihatlar, etnolingvistik jarayonlar va etnoslararo til munosabatlarini atroflicha o'rgangan.

Xorijiy tadqiqotchilarning asarlari uchinchi guruhga mansub bo'lib, A.Vamberi, M.Xoldsvort, V.Xints, S.Maduanov, Yu.Bregel, S.S.Soodanbekov, Skott S.Levi, Ya.Kavaxara, N.Terletskiy, Uchler Bulduk, Yu.Skayler asarlari²¹, S.Abashin²², N.A.Toktorbekova²³ kabi tadqiqotchilarning asarlarida Qo'qon xonligi tarixi va tarixiy demografiyasiga oid ma'lumotlar mavjud.

Venger sharqshunosi, sayyohi Armiy Vamberi asarlarida O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi, iqlimi, aholisining o'ziga xos turmush tarzi to'g'risida²⁴, M.Xoldsvort tadqiqotida xonlik boshqaruv tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy hayotga oid ma'lumotlar mavjud²⁵. Yapon tadqiqotchisi Yayoi Kavaxaraning tadqiqotlarida xonlikning siyosiy, iqtisodiy ahvoli, xonlar hayoti va faoliyatini o'rganish bilan bir qatorda aholi ijtimoiy turmush tarziga oid ma'lumotlar berilgan²⁶.

Mavzu tarixshunosligining tahlili shuni ko'rsatadiki, Qo'qon xonligi va undagi tarixiy demografik jarayonlar turli davrlarda chop etilgan ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar va asarlarda qisman, umumiy tarzda yoritilgan, lekin alohida ilmiy tadqiqot obyekti bo'lmagan.

²¹ Вамбери А. Новости иностранной литературы: натуральные границы Средней Азии и Кокандский поход русских // Голос, 1876, №115. Т.С. Т. 151. – С. 104-109; Holdsworth M. Turkestan in the nineteenth century. A. Brief History of the khanates of Bukhara, Kokand and Khiva. – Oxford, 1959. – 80 p.; Хинц В. Мусульманские меры и веса. Перевод с немецкого. – Москва, 1970. – 146 с.; Мадуанов С. История казахско-узбекских отношений в XIX-начале XX вв. – Туркестан, 1992. – 179 с.; Брегель Ю. Администрация Бухары при мангитах и некоторые Ташкентские рукописи (работы о внутреннем устройстве Азии) 6 JVb 34, Bloomington Indiana, 2000. – 1-14 с.; Сооданбеков С.С. Общественный и государственный строй Какандского ханства. – Бишкек, 2000. – 144 с.; Skott C. Levi. The indian diaspora in Central Asia and its trade, 1550-1900. – Boston-Köln, 2002. – 319 p.; O'sha muallif. The rise and fall of Khoqand, 1709-1876. – Pittsburg: University of Pittsburg Press, 2017. – 1053-1054 p.; Кавахара Я. Маргеланские «тура» в Кокандском ханстве. На японском языке // Летописи Японской Ассоциации по Исследованиям Средней Азии, №20-2. – Токио, 2005. – С. 269-194; O'sha muallif. Muhammad Hakimxonning «Muntaxab ut - tavorix» asari tarixiy manba sifatida // Tarixiy manbashunoslikning dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Toshkent, 2001 yil 25 aprel. – В. 20-21; Терлецкий Н. Некоторые сведения о ранних работах Хуканда. Историография // Manuscripta Orientalia. Международный журнал для исследований в области восточных рукописей. – Санкт-Петербург, том 11, №1, 03. 2005; Uçler Bulduk. Hokand Hanligi ve Fergana tarihi. – Ankara, 2006. – 208 с.; Скайлер Южин. Туркистон. Инглиз тилидан таржима, сўз боши ва изоҳлар муаллифи З.А.Саидбобоев. – Тошкент: O'zbekiston, 2019. – 335 б.

²² Абашин С.Н. Ферганская долина: этничность, этнические процессы, этнические конфликты. – Москва: Наука, 2004. – 113 с.; Сарты – народ с будущим: этнография и империя в русском Туркестане // elektron puxsasi. – 28 с.; Возвращение сартов? Методология и идеология в постсоветских научных дискуссиях // Антропологический форум №10: исследования. – 27 с.; Национализмы в Средней Азии (в поисках идентичности). – Санкт-Петербург: Алетей, 2007. – С. 53-54; Sergey Abaşin. Orta Asya'da Çay: XVIII-XIX. Yüzyıllarda Bir İçeceğın Tarihi (Çev. M. Önder DURAN) // Türk Tarihi Araştırmaları Dergisi 2020. Vol. 5, Sayı. – 36 s.

²³ Токторбекова Н.А. Социальная стратификация кыргызского общества во второй половине XIX века в дореволюционной русской историографии // Universum: Общественные науки: электрон. научн. журн. 2016. № 6 (24). – С.14-22.

²⁴ Вамбери А. Очерки Средней Азии. – Москва, 1868. – 365 с.; O'sha muallif. Этнографический очерк Средней Азии. – Санкт Петербург, 1878. Т.С, т. 4. – 307 с.; O'sha muallif. Путешествие по Средней Азии. Российская академия наук Институт Востоковедения. – Москва: Восточная литература, 2003. – 193 с.

²⁵ Holdsworth M. Turkestan in the nineteenth century. A. Brief History of the khanates of Bukhara, Kokand and Khiva. – Oxford: Central Asian Research Centre, 1959. – 81 p.

²⁶ Кавахара Яёи. «Святые семейства» Маргелана в Кокандском ханстве в XIX в. // PAX ISLAMICA 1 (4) / 2010.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Qo'qon davlat pedagogika institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq I-200-4-5 "O'zbek xalqining tarixiy taraqqiyot bosqichidagi iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy rivojlanishi bugungi kun siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy erkinliklar bilan o'zaro aloqadorliklarining muammoli qirralari" mavzusi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi Qo'qon xonligi davridagi demografik jarayonlarning tarixi, jumladan, aholining son va sifat ko'rsatkichlari bo'yicha o'zgarishlari va unga ta'sir etgan omillar, o'zaro bog'liqlik, migratsiya va ayni holatlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotga ta'siri jarayonlarini yaxlit holatda yoritib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Qo'qon xonligining turli davrlardagi aholisi soni, etnik tarkibi va joylashuvlarini aniqlash;

aholi sonining ortishi va pasayish sabablari, migratsiya jarayonlarini o'rganish;

xonlik aholisining ijtimoiy stratifikatsiyasini ko'rsatish;

qabila va urug'larning xonlik siyosiy hayotiga ta'sirini o'rganish;

xonlik tarkibiga kiritilgan yangi hududlar aholisining xonlikdagi demografik jarayonlarga ta'sirini aniqlash;

oila, nikoh munosabatlari bilan bog'liq jarayonlarni tahlil qilish;

aholining ijtimoiy, oilaviy tarkibi, yosh xususiyatlari, milliylik jihatlari va turmush tarzining demografiyaga ta'sirini ochib berish;

ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholining mamlakat demografiyasida tutgan o'rnini tahlil etish.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida 1709-1876-yillarda Qo'qon xonligidagi demografik jarayonlar belgilangan.

Tadqiqotning predmetini Qo'qon xonligi aholisining ijtimoiy, etnik va milliy tarkibi hamda ulardagi o'zgarishlarga ta'sir etgan omillar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tarixiylik va xolislik tamoyillari, fanlararo yondashuv, tizimlashtirish, miqdoriy, qiyosiy, xronologik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Qo'qon xonligidagi demografik jarayonlar etnik xilma-xillik, migratsiya oqimlari, ijtimoiy-iqtisodiy sharoit, mavjud beqarorlik va tashqi siyosatning ta'siri kabi omillar bilan belgilanishi natijasida aholining hududlar bo'yicha taqsimlanishi xususiyatlari, zichligi va o'sish dinamikasi o'ziga xos demografik tuzilishga olib kelganligi aniqlangan;

Qo'qon xonligidagi mavjud beqarorlik sharoitida aholining ma'lum darajada son jihatdan ortishi kuzatilganligini qishloq xo'jaligi va savdning rivojlanishi bilan bog'lash mumkinligi, biroq o'sish surati notekis – markaziy va janubiy hududlarda bo'lganligi dalillangan;

Qo'qon hukmdorlari tomonidan yangi yerlarning egallanishi va u joydagi aholining xonlik fuqarosiga aylantirilishi, oila va nikoh, o'lim bilan bog'liq jarayonlar, qudratli qabila va urug'larning kuchlarini sindirish maqsadida turli

hududlarga bo'lib (ba'zan deportatsiya) ko'chirilishi orqali demografik tarkibda o'zgarishlar ro'y berganligi isbotlangan;

Xonlik aholisining son jihatdan ortib borishi uch yo'nalishda, jumladan, tabiiy tug'ilish, boshqa hududlardan aholining ko'chib kelib o'rtnashishi (xususan, qirg'iz, qalmoq, uyg'ur, qipchoq, qozoq, qoraqalpoq va b.), hududlarning kengayishi hisobiga sodir bo'lganligi ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

demografiya tarixi, demografik tadqiqot usullarini rivojlantirish, takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiya va takliflar ishlab chiqildi;

demografik jarayonlarga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlar va birlamchi manbalar asosida aholi sonining ortib borishi, ko'chishi, yashashi, oila-nikoh holatining o'ziga xos umumiy jihatlari aniqlandi;

Qo'qon xonligi tarixiga bag'ishlangan manbalar tasniflanib, ulardagi aholi bilan bog'liq ma'lumotlar tizimli shaklga keltirildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi unda zamonaviy tarix fanida e'tirof etilgan yondashuv va usullarning qo'llanilgani, ko'p turdagi tarixiy adabiyotlardan foydalanilgani, XIX asrda yashab o'tgan tarixchilar asarlari, o'lkaga tashrif buyurgan chet el sayyohlari kundaliklari kabi birlamchi manbalarga asoslanilgani, kontseptual asosga ega xulosa, taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilgani hamda tadqiqot jarayonida olingan natijalar ta'lim muassasalari faoliyatiga tatbiq etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya ma'lumotlari va undagi ilmiy xulosalar O'zbekiston tarixining Qo'qon xonligi davri demografiyasini yoritish bilan birga mutaxassislar uchun muhim ma'lumotlar beradi. Dissertatsiya ma'lumotlaridan "O'zbekiston tarixi" faniga oid o'quv adabiyotlarning xonliklar davriga bag'ishlangan bo'limlarini yozishda, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish jarayonida foydalanish mumkin. Dissertatsiya ixtisoslashgan yo'nalishlarga, tarix ta'lim yo'nalishi talabalariga "Qo'qon xonligi tarixi" maxsus kursini o'qitishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. 1709-1876-yillarda Qo'qon xonligi tarixiy demografiyasi va uning o'ziga xosligini tadqiq etish bo'yicha qo'lga kiritilgan natijalar, ilmiy xulosa va takliflar asosida:

Qo'qon xonligidagi demografik jarayonlar, etnik xilma-xillik, migratsiya oqimlari, ijtimoiy-iqtisodiy sharoit, mavjud beqarorlik va tashqi siyosatning ta'siri kabi omillar bilan belgilanishi natijasida aholining hududlar bo'yicha taqsimlanishi xususiyatlari, zichligi va o'sish dinamikasi o'ziga xos demografik tuzilishga olib kelganligiga oid ma'lumotlardan Farg'ona viloyati, Qo'qon shahri "O'lkashunoslik muzeyi" bo'limlarini yangi materiallar bilan boyitishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi madaniy meros agentligining 2022-yil 19-apreldagi 01-01/1025-son ma'lumotnomasi). Natijada, Qo'qon xonligi aholi demografiyasi, soni, turmush tarzi yoritilgan fotosuratlar va tadqiqot natijalari asosida yaratilgan yangi ekspozitsiyalarni keng ommaga taqdim etish imkoniyati yaratildi va muzeyga tashrif buyuruvchilarning bu boradagi bilim, tasavvurlarini yanada boyitishga xizmat qildi;

Qo‘qon xonligidagi mavjud beqarorlik sharoitida aholining ma‘lum darajada son jihatdan ortishi kuzatilganligini qishloq xo‘jaligi va savdoning rivojlanishi bilan bog‘lash mumkinligi, biroq o‘shish sur‘ati notekis – markaziy va janubiy hududlarda bo‘lganligiga doir xulosalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” telekanalida 2020-yil 15-dekabrda efirga uzatilgan “Taqdimot” ko‘rsatuvining ssenariylarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali” davlat unitar korxonasi 2021-yil 4-yanvardagi 02-40-02-son ma‘lumotnomasi). Taqdim etilgan materiallar teletomoshabinlarning Qo‘qon xonligi aholi demografiyasiga oid yangi bilim va tasavvurlarga ega bo‘lishiga xizmat qildi;

Qo‘qon hukmdorlari tomonidan yangi yerlarning egallanishi va u joydagi aholining xonlik fuqarosiga aylantirilishi, oila va nikoh, o‘lim bilan bog‘liq jarayonlar, qudratli qabila va urug‘larning kuchlarini sindirish maqsadida turli hududlarga bo‘lib (ba‘zan deportatsiya) ko‘chirilishi orqali demografik tarkibda o‘zgarishlar ro‘y berganligiga doir ma‘lumotlardan Farg‘ona viloyati, Qo‘qon shahri “O‘lkashunoslik muzeyi” bo‘limlarini yangi materiallar bilan boyitishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi madaniy meros agentligining 2022-yil 19-apreldagi 01-01/1025-son ma‘lumotnomasi). Natijada, Qo‘qon xonligi aholi soni, ijtimoiy hayotiga doir tadqiqot natijalari ekspozitsiyalarni yanada to‘ldirishga va muzeyga tashrif buyuruvchilarning bu boradagi bilimlarini boyitishga xizmat qildi;

xonlik aholisining son jihatdan ortib borishi uch yo‘nalishda, jumladan, tabiiy tug‘ilish, boshqa hududlardan aholining ko‘chib kelib o‘rnashishi (xususan, qirg‘iz, qalmoq, uyg‘ur, qipchoq, qozoq, qoraqalpoq va b.), hududlarning kengayishi hisobiga sodir bo‘lganligiga doir xulosalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” telekanalida 2020-yil 15-dekabrda efirga uzatilgan “Taqdimot” ko‘rsatuvining ssenariylarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali” davlat unitar korxonasi 2021-yil 4-yanvardagi 02-40-02-son ma‘lumotnomasi). Taqdim etilgan natijalar teletomoshabinlarning Qo‘qon xonligi aholisi turmush tarzi, demografiyasiga oid yangi bilim va tasavvurlarga ega bo‘lishiga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 11 ta ilmiy konferentsiyada, jumladan, 7 ta xalqaro hamda 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 27 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 16 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 9 tasi xorijiy nashrlarda, 2 tasi Scopus bazasida indekslangan jurnallarda e‘lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxatidan hamda ilovadan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 148 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslanib, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob’ekti va predmeti aniqlangan. Shuningdek, tadqiqotning fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo’nalishlariga mosligi bayon qilinib, ishning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ko’rsatib o’tilgan. Olingan natijalarning ishonchligi asoslangan hamda ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Bundan tashqari, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi, natijalari, e’lon qilingan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishi bo’yicha ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Qo‘qon xonligining tarixiy geografiyasi va aholi nufusi”** deb nomlangan birinchi bobining birinchi paragrafida Qo‘qon xonligi aholisi haqidagi ma’lumotlarning tarixiy manba va adabiyotlarda aks etishi yoritilgan. Xususan, Farg‘ona hududida yashagan xalqlar to‘g‘risida mahalliy tarixchilarning asarlari, arxiv ma’lumotlari, chet el sayyohlari va olimlarining asarlari, Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida yozilgan to‘plam va nashrlardan bilib olish mumkin.

Farg‘ona vodiysi aholisining etnik tarkibi va turli etnoslarning joylashgan o‘rni masalasini o‘rganishda mahalliy manbalarning ham ahamiyati beqiyos sanaladi. Shu o‘rinda Mirzo Qalandar Mushrifning “Shohnomayi nusratpayom”, Muhammad Hakimxonning “Muntaxab at-tavorix”, Mirzo Olim Mushrifning “Ansob as-salotin va tavorix al-havoqin”, Abu Ubaydullohning “Xulosat ul-ahvol”, Muhammad Soliho‘ja Toshkandiyning “Tarixi jadidayi Toshkand”, “Nasabnomayi o‘zbek”, Mulla Niyoz Muhammadning “Ibratul-xavoqin” (Tarixi Shohruxiy), Ishoqxonto‘ra Ibratning “Tarixi Farg‘ona”, Mulla Olim Maxdum xojining “Tarixi Turkiston”, Mahmud Hakim Yayfoniyning “Xullas at-tavorix”, Avaz Muhammad Attorning “Tarixi jahonnamoyi”, Muhammad Umar Umidiy Marg‘iloniyning “Tarixchayi Turoniy” kabi nasr va nazmda yaratilgan asarlarni²⁷ ko‘rsatib o‘tish kerak. Ishda mazkur manbalar qaysi elat va qavmlar qayerda yashaganlari, ularning tarkibi, turmush tarzi haqidagi ma’lumotlari keltiriladi.

Dissertatsiyaning birinchi bob ikkinchi paragrafida XVII asr oxiri – XVIII asr boshlarida Farg‘ona vodiysi aholisining etnik tarkibi va joylashuvi masalasi tahlil

²⁷ Мирзо Қаландар Мушриф. Шохномаи нусратпаём / Таржима ва изоҳлар муаллифлари Маҳмудов Ж., Отахонов Ф. / Ўзбекистон хрестоматияси. III жилд. XVI-XIX асрлар. – Тошкент: Фан ва технология, 2014. – С. 75-85; Муҳаммад Ҳакимхон тўра. Мунтахаб ут-таворих // ЎзР ФА ШИ, қўлёзма, инв. №594; Мирзо Олим Мушриф. Ансоб ус-салотин ва таворих ул-хавокин / нашрга тайёрловчилар А. Матғозиев, М. Усмонова. – Тошкент, 1995. – 128 б. // ЎзР ФА ШИ, қўлёзма, инв. №1314; Абу Убайдуллоҳ. Хулосат ул-ахвол // ЎзР ФА ШИ қўлёзма, инв. №2084; Муҳаммад Солиҳ Тошканди. Тарихи жадидаи Тошканд / Муқаддима, изоҳлар муаллифи Ш.Воҳидов. – Душанбе: Маориф, 2024. – 550 с.; Насабномаи ўзбек / Аҳмедов Б. Историко-географическая литература Средней Азии XVI-XVIII вв. (писменные памятники). Ташкент: Фан, 1985. – С. 129-131; Мулла Ниёз Муҳаммад. Ибратул-хавоқин (Тарихи Шохрухий) / Тоҷик тилидан таржимон, ўзбек тилидан таъдил, кириш ва изоҳлар муаллифи Ш.Воҳидов. – Тошкент: Турон замин зиё, 2014. – 700 с.; Ишоқхон Тўра Ибрат. Тарихи Фарғона / нашрга тайёрловчилар Ҳ. Бобобеков, Маҳмуд Ҳасаний. – Тошкент: Камалак, 1991. – Б. 268-327; // ЎзР ФА ШИ, қўлёзма, инв. №11616; Мулло Олим Маҳдум Ҳожи. Тарихи Туркистон. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. – 250 б.; Маҳмуд Ҳаким Яйфоний. Хуллас ут-таворих // ЎзР ФА ШИ литографик нашр. Инв. №304; Аваз Муҳаммад Аттор. Тарихи жаҳоннамойи / форс-тоҷик тилидан Шодмон Воҳид таржимаси // Шарқ юлдузи. 1991.-№8. - Б. 119-137; Муҳаммад Умар Умидий Марғилоний Тарихчایی Туроний (Қўқон хонлиги тарихига оид чизгилар) / Таъдил, кириш, изоҳлар ва факсимиле нашри муаллифи т.ф.д. проф. Ш.Воҳидов. Иловалар Ш.Умаровники. – Тошкент, 2012. – 208+24 (факсимиле ССЛXXXXIV).

qilingan. Xususan turkiy urug‘lar Farg‘ona hududi aholisi etnik tarkibidagi asosiy qatlam hisoblanganligi, ular Markaziy Osiyo, jumladan, Farg‘ona vodiysi hududida qadim zamonlardan beri yashab, doimiy ravishda turg‘unlashib, mahalliy xalqlar bilan etnogenetik va madaniy aloqalarda bo‘lib kelganligi yoritildi²⁸.

Dashti Qipchoq hududidan kirib kelgan urug‘lar to‘g‘risida T.I.Sultanovning “XV – XVIII asrlarda Orol dengizi mintaqasining ko‘chmanchi qabilalari” nomli asarida ma‘lumotlar mavjud. Ushbu ma‘lumotlarga asosan bir necha manbalar (manba mualliflari aksariyat o‘sha davrda yashaganlar va hatto ayrimlari bu jarayonlarda ishtirok etgan) shuni ko‘rsatadiki, Shayboniyxon (1451-1510-yillar) qo‘shinidagi Dashti Qipchoq ko‘chmanchilarining soni 40-60 mingtani tashkil etgan²⁹.

Niyoz Muhammadning “Ibratul xavoqin” asarida qipchoqlar turkiy xalqlarning eng yirik qabilalaridan biri hisoblanib, XVIII asrning 20-30-yillarida Shimoliy Farg‘onaning tog‘ oldi mintaqalariga kelib o‘rnashganligi to‘g‘risida ma‘lumotlar mavjud³⁰.

Farg‘ona vodiysi aholisining aksariyati o‘zbek, sart, tojik, qoraqalpoq, qipchoqlardan iborat bo‘lib, tog‘ taraflarida qirg‘izlar istiqomat qilganlar. Ajnabiylardan yahudiylar, hindlar, fors, arman, gruzin va boshqalar tijorat bilan shug‘ullanib yashab kelganlar³¹.

Dissertatsiyaning birinchi bobi uchinchi paragrafida xonlik aholisining ijtimoiy stratifikatsiyasi haqida bahs yuritiladi. O‘rganilayotgan davrda xonlik ijtimoiy tabaqalarga bo‘lingan jamiyatdan tashkil topgan edi. Har bir tabaqa davlat va jamiyatdagi siyosiy maqomi, mulkka egaligi, hukmron sulola yoki tarixan imtiyozli bo‘lgan. Shuningdek, sayyid yo xo‘ja, o‘tgan hukmdorlar shajarasidan ekani, o‘zining bilim va malakasi bilan qandaydir imtiyozlarga ega bo‘lgani, ilm va islom ulamolari orasidan, zodagon yo qorasuyak ekani, o‘troq yoki ko‘chmanchilikni boshdan kechirayotgani, hunarmandlar ahliga aloqasi, savdogar ahlidan bo‘lishi bilan jamiyatdagi iyerarxiyada yuqori yoki pastroq darajaga ega bo‘lgan. Bularning ba‘zilari alohida ijtimoiy guruh – stratalarni tashkil etgan.

Xonlik aholisining ijtimoiy stratalari shahar va qishloqda yashayotgan kishilarga hamda o‘troq va ko‘chmanchi, yarim ko‘chmanchiga ajralgan. Shulardan shahardagi aholi orasida savdogarlar va hunarmandlar asosiy ijtimoiy guruhlarni tashkil qilgan. Savdogarlar alohida tabaqa sifatida xonlik ijtimoiy hayoti va xo‘jaligida muhim o‘rin egallagan.

Tashqi savdoda va xalqaro munosabatlarni belgilashda hashamdor uy-joy va kiyim-kechak siyosiy kuch – qudrat, yuqori strata ramzi sifatida muhim rol o‘ynagan. Hatto, kiyimga taqilgan yoki tikilgan turli ramz va nishonlar ham savdogarlarning maqomini ko‘rsatgan³².

²⁸ Абдуллаев У.С. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар. Тарих фан.докт.дисс. – Тошкент, 2006. – Б. 47.

²⁹ Султанов Т. И. Кочевые племена приаралья в XV-XVIII вв. – Москва: Наука, 1982. – С. 21.

³⁰ Муҳаммад Ниёз Хўқандий. Ибратул-хавоқин (Тарихи Шохрухий) – Тошкент: Turon-zamin ziyo, 2014. – Б. 404-405.

³¹ Исҳоқхон Ибрат. Тарихи Фарғона / Нашрга тайёрловчи У.Долимов, Н.Жабборов. – Тошкент: Маънавият, 2005. – Б. 6.

³² Ремпель Л.И. Бухарские записи. Далекое и близкое: страницы жизни, быта, строительного дела, ремесла и искусства Старой Бухары. – Ташкент: Изд-во литературы и искусства, 1981. – С. 81.

Qo‘qon xonligida diniy tabaqa vakillari davlat siyosatiga katta ta‘sir ko‘rsatganlar. Ijtimoiy stratifikatsiya (tabaqalanish) doirasida dindorlarning yuqori tabaqasi hukmron doiraning bir qismi, quyi tabaqalari esa o‘troq qishloq xo‘jaligi aholisining mehnatkash ommasiga yaqin edi. Ulamolar, so‘fiylar (eng yirik maqom – naqshbandiya, qodiriya, qalandariya, mujadidai alfi soniya va b.), mahalliy va sulolaviy (kosoniy, marg‘iloniy, Toshkent xo‘jalari, Maxdumi A‘zam, Xoja Ahror avlodlari) guruhlariga bo‘lingan³³. Maxdumi A‘zam avlodlariga Qo‘qon xonlari qiz berib qarindoshlik rishtalarini bog‘lashga intilganlar. Norbo‘tabiy (1763-1798-yillar) qizi Oftoboyimni Hakim to‘raga nikohlab bergan. Ushbu nikohdan Ma‘sumxon to‘ra tavallud topgan³⁴. Sayyid Ma‘sumxon, Ahmad Xo‘ja Kosoniy (vafot etgan yili 949/1542-1543-yillar) nomi bilan ham mashhur bo‘lgan so‘fiy shayxlaridan Maxdumi A‘zam avlodlaridan bo‘lgan. Maxdumi A‘zam avlodlari xonlikning nafaqat ichki, balki tashqi siyosatida ham o‘z o‘rniga ega bo‘lgan. Xususan, Jahongirxon to‘raning³⁵ siyosiy faoliyati Qo‘qon xonligi tarixiga doir manbalarda o‘z ifodasini topgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi to‘rtinchi paragrafida mamlakat etnosiyosiy hayotida qabila-urug‘larning o‘rni to‘g‘risida gap borib, mahalliy qabila-urug‘larning Qo‘qon xonligi tashkil topishidagi va siyosiy hayotidagi o‘rni, ahamiyati va hududning tarixiy geografiyasi masalalari ko‘rib chiqilgan.

Farg‘ona hududidagi birinchi mustaqil mulklarning paydo bo‘lishi XVIII asr boshi bilan bog‘liq edi. Birinchi bo‘lib Farg‘ona hududini birlashtirishga Yuz qabilasi harakat qilgan. Ular Toshkent va Sirdaryo hududidagi bir qancha viloyatlarni o‘zlariga bo‘ysundirganlar. Lekin keyinchalik hukmronlik Minglar qo‘liga o‘tdi. Yuzlar tasarrufida esa markazi O‘ratepa bo‘lgan Farg‘ona vodiysining g‘arbiy hududlari qolgan. Ushbu qabilaning asosiy yashash manzillari O‘ratepa va Jizzax ekanligi O‘rta Osiyo tarixiga oid “Туркестанский сборник”³⁶ nomli to‘plamda ham o‘z tasdig‘ini topgan.

Mirzo Olim Maxdum hojining “Tarixi Turkiston”³⁷ asarida berilgan ma‘lumotga ko‘ra, Chodak mavzeida yashovchi xo‘jalar³⁸ Targ‘ova, Chamashbiy, Chankat, Pillaxon, To‘qaytepa, Purtak (Purnok), Teraqo‘rg‘on, Qaynar va boshqa bir necha hududlarda hukmronlik qilganlar. XVIII asr boshida ushbu hududlarni Shoxruxbiy egallab minglar sulolasi hukmronligiga asos soladi.

³³ Анке фон Кюгельген. Расцвет Муджаддадийа – Накшбандийа в Средней Трансоксиани с XVIII – до начала XIX вв.: Опыт детективного расследования // Суфизм в Центральной Азии (Зарубежные исследования): Сб. ст. памяти Фритца Майера (1912 – 1998). / Сост. и отв. ред А.А.Хисматуллин. – СПб, 2001. – С. 331 – 357; Пауль Ю. Доктрина и организация Хваджаган Накшбандийа в первом поколении после Баха‘аддина // Суфизм в Центральной Азии. Зарубежные исследования (под ред. А.А.Хисматулина). СПб, 2001. – С. 114-199.

³⁴ Муҳаммад Ҳақимхон тўра / Форс-тожик тилидан таржимон, кириш ва изоҳлар муаллифи Ш.Воҳидов. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. – Б. 5-6.

³⁵ Jahongirxon to‘ra Qo‘qon xonlari Umarxon va Muhammad Alixon saroyida oliy diniy vazifalarda faoliyat yuritgan bo‘lib, u kishining shajarasi Mahdumi A‘zamning evarasi Xoja Hidoyatulloh (Ofoqxoja) avlodlaridan bo‘lganligi bois manbalarda ismiga Sayyid Ofoqiy nisbasi qo‘shilgan. Shuningdek, tadqiqotlarda “Qoshg‘ar hojalari”, deb ham yuritiladi. Qarang: Султонова Г., Аллаева Н., Махмудов Ш. Ўрта Осиё халқларининг этник тарихи ва минтақада юз берган демографик жараёнларнинг манбаларда акс этиши (XVI-XIX аср биринчи ярми)... – Б. 96-98.

³⁶ Межов В.И. Туркестанский сборник. – СПб., 1878. – С. 511.

³⁷ Мулла Олим Махдум хожи. Тарихи Туркiston. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. – Б. 45-46.

³⁸ Xo‘jalar-rivoyatlar bo‘yicha birinchi musulmon arab muhojirlaridan tarqalgan avlod. Chodak xo‘jalari ham o‘zlarini Maxdumi A‘zam avlodiga mansub deb bilgan.

Namangan atrofida, Sirdaryodan 12 verst narida ko‘chmanchi qoraqalpoq qavmlari ham yashagan. Ular gilam to‘qish va junli mato tayyorlash bilan shug‘ullanganlar³⁹. Qoraqalpoqlar qipchoqning qulon urug‘idan bo‘lgan Musulmonqulni qo‘llab-quvvatlab hukmronlikni qo‘lga kiritishiga yordam beradilar⁴⁰.

Abdurahimbiy (1721-1733-yillar) Xo‘jandni Muhammad Rahim otaliq qirg‘izning o‘g‘li Oqbo‘tabiy yuz qo‘lidan tortib oladi⁴¹. Bir yildan so‘ng esa O‘ratepa hokimi Qulikani mag‘lub etib bu hududlarni Qo‘qon davlati tasarrufiga o‘tkazadi⁴². Xo‘janddan oldin esa Abdurahimbiy Andijonni o‘ziga bo‘ysundiradi⁴³. Bundan ko‘rinib turibdiki, Xo‘jand va O‘ratepada yuz qabilalari hukmron bo‘lganlar.

Dissertatsiyaning **“Qo‘qon xonligidagi tarixiy demografik jarayonlar”** nomli ikkinchi bobi birinchi paragrafida Qo‘qon xonligidagi demografik jarayonlar, xonlik tarkibiga kiritilgan yangi hududlar va ulardagi aholi o‘rganib chiqilgan va tahlil etilgan. Jumladan, Shohruxbiyning o‘g‘li Abdurahimbiy hukmronligi (1721-1733-yillar) davrida avval Andijon, so‘ngra esa Xo‘jand (1725-yil), O‘ratepa (1726-yil) hududlari Qo‘qon davlati tasarrufiga kiritildi⁴⁴. Natijada bu hududda yashovchi tojiklar, turklar (qarluq, yag‘ma, chigil, nayman, xitoy, tog‘ay va b.), qirg‘iz, qoraqalpoq, dungan, yarim o‘troq o‘zbeklar (yuz, ming, turk, qipchoq, qurama, kenagas va boshqalar) xonlik etnik tarkibiga qo‘shiladi.

XVIII asrning oxiriga kelib Norbo‘tabiy (1763-1798-yillar) vodiydagi barcha beklik va viloyatlarni xonlik tarkibiga kiritadi. Olimxon (1798-1810-yillar) davrida, xususan, 1800-1803-yillardagi harbiy yurishlar natijasida xonlik hududlari Toshkent va uning atrofidagi yerlar hisobidan ancha kengaydi. Uning hududlariga Ohangaron, Chinoz, Toshkent atrofi, Sirdaryo bo‘ylarida joylashgan bugungi Turkiston shahri va uning atroflari kirgan⁴⁵.

Umarxon (1810-1822-yillar) hukmronligi davrida Turkiston va Dashti Qipchoq hududlari bosib olindi (1815-1816-yillar)⁴⁶. 1815-yilda Rajab qo‘shbegi boshchiligidagi qo‘shin Turkistonni zabt etdi⁴⁷. Turkistonning bosib olinishi deyarli Sirdaryoning Orol dengiziga quyilish joyigacha bo‘lgan qozoq cho‘llarining Qo‘qon xonligi tarkibiga o‘tishiga olib keldi. Bosib olingan yerlar Dashti Qipchoq hududlari bilan birgalikda Toshkent viloyati tarkibiga kiritildi. Natijada ushbu hududda yashovchi, asosan, qozoq, qirg‘iz, qipchoq qabilalari xonlikning etnik tarkibiga kiritildi.

³⁹ “Записки о некоторых народах и землях Средней Азии” Филиппа Назарова (1813-1814). История Узбекистана в источниках. Известия путешественников, географов и учёных XVI- первой половины XIX вв. – Ташкент: Фан, 1988. – С. 172.

⁴⁰ Мулла Олим Махдум хожи. Тарихи Туркистон... – Б. 12.

⁴¹ Мирза Алим ибн Мирза Рахим Тошканди. Ансаб ас-салатин ва таварих ал-хавакин / Введение и научный редактор Ш.Вохидов. Перевод со староузбекского языка Салиджан Юлдашев. – Ташкент: Мозийдан садо, 2007. – С. 82-83.

⁴² Мулла Олим Махдум хожи. Тарихи Туркистон... – Б. 50.

⁴³ Худоёрхонзода. Анжум ат-таворих... – Б. 309.

⁴⁴ Мухаммад Ниёз Хўқандий. Ибратул-хавокин... – В. 49.

⁴⁵ Mairambek Tagaev. Hokand hanliginin (1709-1876) sosyal ve kültürel tarihi. Doktora tezi. – İstanbul, 2017. – P. 53-52.

⁴⁶ Мирза Алим ибн Мирза Рахим Тошкандий. Ансаб ас-салатин ва таварих ал-хавакин... – В. 89.

⁴⁷ Мухаммад Ниёз Хўқандий. Ибратул-хавокин... – Б. 106.

Muhammad Alixon (1822-1842-yillar) hukmronligi davrida Qo‘qon xonligi hududlari yanada kengaydi. Xonlik shimolda Rossiya imperiyasiga qarashli Tashqi Sibir okrugi bilan, g‘arbda Xiva xonligi va Buxoro amirligi bilan, janubda Qorategin, Darvoz va undan uzoqroqdagi yerlar – Sho‘g‘non, Ro‘shon va Voxan bilan, sharqda Qoshg‘ar bilan chegaralangan.

Dissertatsiya ikkinchi bobining ikkinchi paragrafidagi Qo‘qon xonligi aholisi etnik tarkibi va soni to‘g‘risida ma‘lumotlar berilgan va tahlil qilingan.

T.K.Beysembiyevning ta‘kidlashicha, Qo‘qon xonligi va atrof hudud aholisining etnik tarkibi xilma xil bo‘lgan. Jumladan, Farg‘onaning tub aholisini o‘zbek, tojik hamda ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholisini – qipchoq, qirg‘iz, turk, qoraqalpoq, jonbag‘ish va qalmoqlar tashkil qilgan⁴⁸. Qipchoqlar Shahrixon hududlari, Baliqchi, ikki daryo – Qoradaryo va Norin oralig‘ida yashaganlar, qirg‘izlar esa Farg‘onani o‘rab turgan tog‘ va tog‘ etaklarida (Ketmontepa, Oloy) ko‘chmanchi hayot kechirganlar.

Toshkent va Dashti Qipchoq aholisi tarkibidagi etnik guruhlarga qo‘ng‘irot, qang‘li, sanchiqli, sergili, qora qayroq, arg‘in va beshtamg‘ali urug‘lari kirgan⁴⁹. Toshkent atrofidagi hududlarda esa qozoqlar va qoraqalpoqlar istiqomat qilganlar⁵⁰. Toshkent hududi va Quramaning tub aholisini tojiklar va “andi”lar⁵¹ tashkil qilganlar. Ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholisini – qurama va qozoqlar tashkil qilgan. O‘ratepaning tub aholisini sartlar va tojiklar, ko‘chmanchi aholisini esa yuzlar va qirqlar tashkil qilgan. Samarqand yaqini va Jizzaxda esa xitoy-qipchoqlar va qoraqalpoqlar ko‘chmanchi hayot kechirganlar⁵².

Qozoq olimi Ch.Valixonovning ta‘kidlashicha, qaysaqlar Toshkent hukmronligi ostidagi hududlarda, Katta va Kichik o‘rdada istiqomat qilishgan⁵³. Katta o‘rdada Toshkent atrofida sanchiqli, qang‘li qabilalari, Chu, Talas vodiysida dulat, jaloir, suvon qabilalari, O‘rta o‘rdada qo‘ng‘irot, qirg‘iz qabilalari yashaganlar⁵⁴. 1800-yilda Toshkentga sayohat qilgan Pospelov va Burnashevlarining xabar berishicha ham, Toshkent yaqinidagi tog‘li hududlarda qoraqirg‘izlar yoki boshqacha qilib aytganda, qirg‘izlar istiqomat qilgan⁵⁵.

Bundan tashqari, XIX asrning boshlarida qirg‘iz, qalmoq, uyg‘ur, qoraqalpoq va qozoq-qipchoqlar Xitoy hukumati tazyiqi ostida Sharqiy Turkistondan Farg‘ona vodiysiga ko‘chib kelishga majbur bo‘lishgan⁵⁶.

⁴⁸ Бейсембиев Т.К. “Тарих-и Шахрухи” как исторический источник. – Алма-Ата: Ылым, 1987. – Б. 78-80.

⁴⁹ Султонова Г., Аллаева Н., Махмудов Ш. Ўрта Осиё халқларининг... – Б. 66.

⁵⁰ Путешествие Мир Иззет Уллы в Кокандское ханство (1812). История Узбекистана в источниках. – Ташкент: Фан, 1988. – С. 160.

⁵¹ Andi – V.Nalivkinning ta‘kidlashicha, turkiy qabila nomi, Andijon nomi shu qabila nomidan kelib chiqqan. Qarang: Наливкин В. Краткая история Кокандского ханства. – Казань: Типография Императорского Университета, 1886. – С. 6.

⁵² Бейсембиев Т. К. “Тарих-и Шахрухи” как исторический источник... – Б. 78-79.

⁵³ Мансурова А.С. Роль Ч. Валиханова в историческом наследии народов Средней Азии и Казахстана. Известия Национальной Академии наук Республики Казахстан. Вып. 1. – Алматы: Аруна, <http://akademianauk.kz/> 2014. – С. 19.

⁵⁴ Валиханов Ч.Ч. Собрание сочинений в пяти томах. Том 3. – Алма-Ата: Главная редакция Казахской советской энциклопедии, 1985. – С. 314.

⁵⁵ География историческая. Часть VI. Поездка Поспелова и Бурнашева в Ташкент, в 1800 году // Вестник ИРГО, часть 1-ая. – СПб, 1851. – С. 43.

⁵⁶ Вохидов Ш. Кўқон хонлигида тарихнавислик. – Тошкент: Akademnashr, 2010. – Б. 59.

Yuqoridagi xalqlardan tashqari, Qo‘qon xonligi hududida buxoroliklar, afg‘onlar, hindlar va yahudiylar istiqomat qilgan, ular asosan savdo-sotiq ishlari bilan shug‘ullangan⁵⁷.

1866-yil Toshkent tumanida 200 ming, Avliyootada 90 ming, To‘qmoqda 70 ming, Chimkentda 70 ming, Turkistonda 60 ming, Perovski fortida 40 ming, Orol hududida 40 ming nafar atrofida aholi yashagan. Viloyat bo‘yicha jami 570 ming nafarni tashkil qilgan⁵⁸. U.S.Abdullayev tadqiqotida tugatilgan xonlik o‘rnida tashkil etilgan Farg‘ona viloyatida – 1 569 962 nafar, Xo‘jandda – 77 390 nafar, jami – 1 647 352 nafar aholi yashaganligini aniqlagan⁵⁹.

A.P.Fedchenkoning bergan ma‘lumotlariga ko‘ra, Rossiya imperiyasi Qo‘qon xonligiga tegishli bo‘lgan hududlarning deyarli 9/10 qismini ishga solgan (1873-yil)⁶⁰. Bu bilan Qo‘qon hududi faqat o‘troq aholi bilangina kifoyalanib qolgan. Shuning uchun aholi miqdori ham statistik ma‘lumotlarda kamchilikni tashkil etgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “Demografik jarayonlarni aholi xo‘jaligi va turmush tarziga ta‘siri” deb nomlanib, birinchi paragrafida tarixiy demografik jarayonlarda oilaning o‘rni mavzusi yoritilgan.

Urf-odat va marosimlar maishiy turmush, oila hayoti bilan bevosita bog‘langan ijtimoiy hodisa hisoblanadi. XIX asr boshlarida Markaziy Osiyo xalqlarida oilaning asosan ikki shakli mavjud bo‘lib, ilmiy adabiyotlarda bulardan birinchisi “katta patriarxal oilalar” ikkinchisi esa “kichik” yoki “oddiy oilalar” nomi bilan yuritiladi⁶¹. “Katta patriarxal oilalar” farg‘onaliklar uchun xos bo‘lgan. Vodiyning chekka hududlarida joylashgan qishloqlarida bunday oila a‘zolarining soni 60-70, hatto 100 nafargacha etgan⁶².

O‘tmishda O‘rta Osiyo va Qozog‘istonning barcha xalqlaridagi kabi vodiyliklarda ham nikohning bir necha tarixiy shakllari saqlanib qolgan edi. Xususan, “endogam” (yaqin qarindosh urug‘lar o‘rtasidagi ichki nikoh), “egzogam” (o‘zga urug‘-elatlar (begonalar) bilan bo‘ladigan tashqi nikoh), “levirat” (beva qolgan aka yoki ukaning xotiniga uylanish), “sororat” (xotini vafot etgan yigit uning singlisiga uylanish) kabi nikoh shakllari shular jumlasidandir⁶³.

“Туркестанские ведомости” gazetasining 1873-yil 26-sonida “Toshkent qaydlari” rukni ostida mahalliy aholi oilaviy hayoti to‘g‘risida bir qancha ma‘lumotlar berilgan. Unga ko‘ra, “sartlar serfarzand bo‘lib, yoshlari ham 100 dan oshgan. Ba‘zan sartlarning bir xotinidan 15 nafargacha farzandlari bo‘lgan. Bir nechta xotini bor sartning oilasi soni o‘rtacha 30 nafarni tashkil etgan”⁶⁴.

Uchinchi bobning ikkinchi paragrafi Qo‘qon xonligi aholisining xo‘jaligi va turmush tarziga bag‘ishlangan. Jumladan, xo‘jalik mashg‘ulotlariga ko‘ra, o‘troq

⁵⁷ Скайлер Южин. Туркистон. Инглиз тилидан таржима, сўз боши ва изоҳлар муаллифи З.А.Саидбобоев. – Тошкент: O‘zbekiston, 2019. – Б. 271.

⁵⁸ O‘z MA, I.1-fond, 16-ro‘yxat, 2-ish, 6-varaq.

⁵⁹ Абдуллаев У.С. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар: Тарих фан.докт. ... дисс. – Тошкент, 2006. – Б. 46-47.

⁶⁰ Федченко А. П. В Коканском ханстве. Путешествие в Туркестан. Известия императорского общества любителей естествознания, антропологии и этнографии. Вып. 7, том I, часть II. – СПб. Москва, 1875. – С. 8.

⁶¹ Семья и семейные обряды у народов Средней Азии и Казахстана. – Москва: Наука, 1978. – С. 56.

⁶² O‘sha asar. – С. 57.

⁶³ Абдуллаев У., Валихонова Г. Фарғона водийси аҳолиси. – Тошкент: Наврўз, 2016. – Б. 162-164.

⁶⁴ Туркестанские ведомости. 1873. №26.

aholining asosiy qismi dehqonchilik, ipakchilik (asosan, Xo‘jand hududida rivojlangan⁶⁵), paxtachilik, hunarmandchilik va kosibchilik hamda savdo-sotiq bilan band bo‘lsa, ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholi chorvachilik bilan shug‘ullangan⁶⁶.

Minglar yashaydigan hudud dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanish uchun juda qulay bo‘lgan. Ular guruch, arpa, bug‘doy, makka, jo‘xori va boshqa donli ekinlarni yetishtirganlar. Ularning ba‘zilari oz miqdorda bo‘lsa ham ipakchilik bilan shug‘ullangan⁶⁷. Tut daraxti ipak yetishtirish maqsadida asosan So‘x va Isfara hududlariga ko‘plab ekilgan⁶⁸.

Qoraxitoy istehkomi va uning atrofida qurama xalqlari yashab, ular asosan, tariq yetishtirish bilan shug‘ullangan⁶⁹. Qipchoqlar va qoraqalpoqlar Sirdaryo, Qoradaryo, Norin atroflaridagi botqoq yerlarni o‘zlashtirib bu hududlarda bug‘doy, jo‘xori, guruch, mosh va boshqa ekinlarni yetishtirgan⁷⁰. Qirqlar ham yuzlar kabi mayda chorva boqqanlar, guruch yetishtirganlar. Qirqlar o‘z urf-odatlarini esdan chiqarib atrofidagi xalqlarning odatlarini qabul qilavergan⁷¹.

Aholi o‘z dehqonchiligi, tirikchiligidan tashqari xonlik tomonidan yuklatilgan majburiyatlarni ham bajargan. Ulardan biri bu – hashar bo‘lgan. Bu yo‘l bilan xonlikdagi barcha sug‘orish inshootlari ta‘mirlangan, yangi kanal – ariqlar qazilgan, yo‘llar solinib, masjid va madrasalar qurilgan. Shuningdek, hashardan qishloq xo‘jaligidagi ishlarda, xususan sholi yetishtirish⁷², qamish kesish, o‘tin va yantoq terish⁷³da ham keng foydalanilgan.

XIX asrda aholi tomonidan, odatda, g‘ishtli, paxsali, sho‘r bosgan va yer osti suvlari yer yuziga yaqin bo‘lgan joylarda sinchli uy-joylar qurilgan. Sinchli imoratlar (bir sinchli va qo‘sh sinchli) bir qavatli (ba‘zan ikki qavatli) uylar bo‘lib, u darvozaxona, boloxona, otxona, omborxona, oshxona, molxona, ichki va tashqi hovlilarni o‘z ichiga olgan. Qo‘qon, Marg‘ilon, Toshkent, Xo‘jand, O‘ratepa shaharlarida mahalliy sharoitga mos ikki qavatli uylar ham qurilgan. Shahar qurilishida uylar zich, bir biriga yaqin, ko‘chalar juda tor bo‘lgan⁷⁴.

Hunarmandchilik, ayniqsa, Qo‘qon xonlik poytaxtiga aylangandan so‘ng tez rivojlandi. Tarixiy ma‘lumotlar va hujjatlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, shaharda XIX asrda ishlab chiqarish bilan bog‘liq 250 dan ortiq kasb-hunar turi mavjud bo‘lgan. Hamda 40 dan ziyod mahalla kasb-hunar nomi bilan atalgan, zero hunarmandlarning aksariyati alohida mahallalarda istiqomat qilganlar⁷⁵.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi uchinchi paragrafida ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholining xonlik demografiyasiga ta‘siri masalalari tahlil qilingan.

⁶⁵ Федченко А. П. В Коканском ханстве. Путешествие в Туркестан. Известия императорского общества любителей естествознания, антропологии и этнографии. Вып. 7, том I, часть II. – СПб. – Москва, 1875. – С. 24-25.

⁶⁶ Иванов П. П. Очерки по истории Средней Азии. – Москва, 1958. – С. 183.

⁶⁷ Туркестанские ведомости // Ташкент: Типография Округного Штаба, 1871 г., №2, – С. 10.

⁶⁸ Губаева С.С. Население Ферганской долины в конце XIX- начале XX вв. – С. 13.

⁶⁹ Вельяминов-Зернов В. Сведения о Коканском ханстве // Вестник ИРГО, 1856. – С. 112-113.

⁷⁰ Губаева С. С. Население Ферганской долины в конце XIX-начале XX вв. – С. 13.

⁷¹ Туркестанские ведомости // Ташкент, 1871. №40.

⁷² O‘z MA, I.1043-fond, 1-ro‘xat, 520-ish, 1- varaq.

⁷³ O‘z MA, I.1043-fond, 1-ro‘xat, 607-ish, 6 - varaq.

⁷⁴ Вохидов Ш. Кўкон хонлигида тарихнавислик... – Б. 106.

⁷⁵ Муҳаммад Яхўхон Хўқандий. Худоёрхон Ўрдаси. – Наманган: Наманган, 2016. – Б. 177.

Ko'chmanchi tarzda hayot kechiradigan qavmlardan asosiylari qirg'izlar⁷⁶, qozoqlar⁷⁷ bo'lgan. Qirg'izlarning yaylovlarni egallash maqsadida xonlik hududlariga qilgan migratsion jarayonlari doimiy bo'lgan. Ular asosan Yettisuv, Avliyoota, Talos, Oloy, Qoshg'ar, Qorategin hududlaridan kirib kelganlar⁷⁸. Qirg'izlar tog'li hududlarda, Toshkent vohasi va Turkistonda ko'plab yashaganlar⁷⁹.

Umarxon (1810-1822-yillar) davrida Orol dengizidan Ili daryosigacha bo'lgan hududlar ham xonlik tarkibiga kiritilgan⁸⁰. Ushbu hududda yashovchi qozoqlar ko'chmanchi hayot tarzini kechirganlar. Toshkent atrofi va Dashti Qipchoqda qozoqlar ko'plab yashagan⁸¹. Turmush tarzi ham shunga xos bo'lgan.

O'zbeklarning yarim o'troq urug'lari – qoraqalpoqlar, xitoy va qipchoqlar bo'lib, ular cho'llarda yashaganlar va asosan chorvachilik bilan shug'ullanganlar. Ularning suv manbalari quduq va qoq⁸² bo'lgan. Quduq suvi bilan sug'orib sabzavot ekinlarini ham yetishtirishgan⁸³. Keyinchalik, davlatlar o'rtasidagi doimiy janglarda tinkasi quriganidan o'troq hayotga o'tib don yetishtira boshlaydilar. Ko'chmanchilar chaylolari o'rnida XIX asrning 2-yarmiga kelib dehqonlarning hovlilari qad ko'tardi⁸⁴.

U. Abdullayevning ta'kidlashicha, Rossiya imperiyasining Turkiston o'lkasiga qarashli Farg'ona viloyatida yashagan umumiy aholining 52,7 foizini (828 080 nafar) o'troq o'zbeklar, 26,3 foizini (423 639 nafar) qirg'izlar va 9,8 foizini (153 780 nafar) yarim ko'chmanchi (yarim o'troq) o'zbeklar, 6,6 foizini (103 931 nafar) tojiklar, 1,7 foizini (25 971 nafar) qoraqalpoqlar va 2,9 foizini (34 561 nafar) boshqa etnik jamoa vakillari tashkil qilgan⁸⁵.

Turg'un aholi bilan yarim ko'chmanchi aholi o'rtasida xo'jalik aloqalari yuz berar ekan, bu jarayonda dehqon va chorvador etnik guruhlar o'z xo'jaliklarining ixtisoslashuvidan kelib chiqib "ta'sir ko'rsatuvchi etnos"ga aylangan.

XULOSA

Qo'qon xonligi tarixiy demografiyasini mahalliy manbalar, tadqiqot natijalari, arxiv hujjatlari, davriy nashrlar asosida ilmiy o'rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. XVII asr oxiri – XVIII asr boshlarida Farg'ona hududi aholisining etnik tarkibi – turkiyzabon va forsiyzabon aholining assimilyatsiyasi natijasida shakllangan o'troq, ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi "sart"lar, turk-mo'g'ul urug'laridan tashkil topgan, turkiylar va Muhammad Shayboniyxon sabab Dashti

⁷⁶ Воҳидов Ш. Қўқон хонлигида тарихнавислик... – Б. 67.

⁷⁷ Топилдиев Н. Қўқон хонлиги ва Россия империяси тарих чорраҳасида. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – Б. 97

⁷⁸ История Узбекистана... – С. 418.

⁷⁹ Воҳидов Ш. Қўқон хонлигида тарихнавислик... – Б. 67.

⁸⁰ Губаева С. С. Население Ферганской долины в конце XIX-начале XX вв. ... – С. 8.

⁸¹ Топилдиев Н. Қўқон хонлиги ва Россия империяси тарих чорраҳасида... – Б. 97

⁸² Qoq – dasht-cho'llarda chorvadorlarning asosiy taqir manbalaridan biri bo'lgan. Qoq taqir yerlarda bo'lar edi. Buning uchun taqirni hovuzga o'xshatib, odamni ko'krigidan keladigan chuqur kavlab, tevaragini paxsa devor bilan ko'tarar edilar. Bahorda tevarak-atrofdan oqib keladigan yomg'ir suvi shu chuqurga (qoqqa) to'plangan.

⁸³ Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни... – Б. 406, 407.

⁸⁴ Туркестанские ведомости // Ташкент, 1871г. №41. – С. 163.

⁸⁵ Абдуллаев У.С. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар (XIX – XX аср бошлари)... – Б. 46.

Qipchoq hududidan kirib kelgan urug'lardan iborat bo'lgan. Natijada, barcha etnik guruhlarining nomlari (100 ga yaqin), gender ko'rinishlari bilan son va tarkibi, ularning joylashuvlari va o'ziga xos etnomadaniy xususiyatlari shakllandi.

2. Manbalarda o'rta asr muarrixlari tomonidan aholiga nisbatan "aymoq", "jamo", "raiyat", "toifa", "urug'", "xalq", "ev", "el", "elat", "elatiya", "qabila", "qavm", "aymoq", "ahl va aholi", "mardum", "sokin (on)", "maskun", "baroyo" (ko'chmanchi aholi) kabi iboralar qo'llanilgan.

3. Qo'qon xonligi mustaqil davlat bo'lgan davr oralig'ida uning aholisi murakkab etnik tarkibga ega edi. Bu murakkablik XVIII – XIX asrning 70-yillarida mintaqada kechgan etnodemografik jarayonlar, ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy omillar tufayli yanada chuqurlashgan. Turli hududlar va qo'shni davlatlar, uzoq va yaqin mamlakatlardan ko'chib kelgan aholi o'zi bilan yangi hunar va mashg'ulot turlarini olib kelgan, mahalliylikni o'zlashtirishgan. Muayyan shart-sharoitlar mavjud bo'lganida xonlik aholisining har-xil etnik guruhlari o'rtasida yuzaga kelgan etnomadaniy aloqalar zahirida turli xalqlarning muayyan darajadagi integratsiyasi amalga oshgan.

4. O'rganilayotgan davrda Farg'onaning shimoliy, sharqiy hududlarini qirg'izlar egallagan, markazi, sharq va janubi sharqiga qipchoqlar kelib joylashgan. Tog'li hududlarida qirg'izlar, ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi o'zbek urug'lari oldindan yashab kelgan. Janubdagi tog'li hududlarini tojiklar egallagan. Vodiyning o'rta va quyi qismida joylashgan shahar va katta qishloqlarda, ikki tili (tojik – o'zbek, o'zbek – tojik) sart deb nomlanuvchi o'troq aholi istiqomat qilgan. Qozoqlar tog'li hududlarda, Chag'anoq va Toshkent ko'llari o'rtasida ko'chmanchi hayot kechirgan. Qoraqalpoqlar Turkiston, Chimkent, Chinoz, Toshkent, Sirdaryo atroflariga kelib o'rnamashganlar. Mazkur guruhlardan kuchli va gegemon bo'lganlari turli davr va zamonda xonlikning siyosiy va harbiy hayotida ham alohida o'rin egallaganlar. Jumladan, ming qabilasi, qirg'iz va qipchoqlar, Chodak xo'jalari davlat tizimida faol ishtirok etgan. Hamda xonlikda o'troq aholini o'zbek el va qabilalari, ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi qatlamni aynan, qozoqlar, qirg'izlar va qipchoqlar tashkil qilgani bilan xarakterlidir. Bu xususiyat Sheralixonning davlat tepasiga kelishi, uning asosiy harbiy kuchlarini tashkil qilgan Talas qirg'izlari, qirg'iz sarkardalari bo'lganligidir. Xonlik Rossiya imperiyasi tarafidan barham berilguniga qadar qirg'iz-qipchoq etnik guruhlari markaziy hukumat bilan kurash olib borgan;

5. XVIII – XIX asrga kelib xonlik aholi tarkibi Sharqiy Turkistondan, o'z navbatida XIX asrning 30-yillaridan Sharqiy Turkistonga aholi migratsiyasi kuchaygan. Buning sababi XIX asrning 30-yillarida Sharqiy Turkistonda Qo'qon va qo'qonliklarning maqomidagi o'zgarishlar (soliqlarning pasayishi, barcha soliqlarni xon olishi huquqi Chin imperiyasi tarafidan Qo'qon xoni va uning namoyandalarga berilishi) edi. XIX asrning 60-70-yillarida, aksincha, Sharqiy Turkiston xonlik, Farg'ona vodiysiga migratsiya va remigratsiyaning kuchayishi ham ta'sir ko'rsatdi. 1865-yil Rossiya imperiyasi bosqini oqibatida xonlik hududlaridan Buxoro amirligi va Yettishaharga davlat arboblari hamda aholining ko'chib ketishlari ro'y berdi. Xitoy Sharqiy Turkistonni bosib olishi munosabati bilan Ya'qubbek davlatidan ko'p ma'murlar, sarkardalar, musulmon aholi, xo'jalarning vodiya qaytishlari ham aholining tarkibi o'zgarishiga ta'sir etdi.

6. Qo‘qon xonligi hududi kengayishi natijasida o‘troq aholi etnik va xo‘jalik hayotida o‘zgarishlar ro‘y berdi. Azaliy chorvador etnoslarning o‘troqlikka o‘tishi, mahalliy turg‘un aholi bilan har jihatdan qo‘shilib ketish jarayoni yanada jadal tus oldi. Endilikda nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy jihatdan ham yaxlit bir hududga aylangan Farg‘ona vodiysi aholisi hayotida dehqonchilik va chorvachilik xo‘jaliklari o‘rtasidagi aloqalar mustahkamlandi. Etnik muloqotlar yuzaga keldi, yaqinlashuv, birikish va qorishib ketish jarayoni tezlashdi. O‘troq, yarim ko‘chmanchi va ko‘chmanchi aholi xo‘jaligining ma‘lum bir yo‘nalishga ixtisoslashuvi, maishiy turmush, an‘analarning barqarorligi ta‘minlandi.

7. Oila, urf-odat va marosimlar muayyan etnosni boshqasidan farqlanib turishini ta‘minlovchi muhim etnografik belgilari qatoriga kirib, ayni vaqtda ushbu urf – odat va marosimlarda inoetnik jihatlar ham ma‘lum darajada aks etgani tahlil etildi. Har bir etnosga xos madaniyatning o‘zi uning o‘zga etnoslar bilan uzoq davom etgan etnogenetik, aralashuv (assimilyatsiya), tarixiy-madaniy aloqalari mahsuli hisoblangani ma‘lum bo‘ldi.

8. Xo‘jalik mashg‘ulotlariga ko‘ra o‘troq aholining asosiy qismi dehqonchilik, hunarmandchilik va kosibchilik hamda savdo-sotiq bilan band bo‘lgan. Ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholi chorvachilik va dehqonchilik bilan shug‘ullangan. Xonlik hududlaridagi shahar aholisi orasidagi “sart” etnik guruhi haqida yangi mushohada va izlanishlar natijalari qo‘lga kiritildi.

9. Turg‘un va yarim ko‘chmanchi aholi o‘rtasida siyosiy, iqtisodiy, savdo-sotiq, madaniy va xo‘jalik aloqalari yuz bergan. Ushbu jarayonda dehqon va chorvador etnik guruhlar o‘z xo‘jaliklarining ixtisoslashuvidan kelib chiqib demografik jarayonlarda “ta’sir ko‘rsatuvchi etnos” mavqeini o‘ynagan.

10. Xonlik davrida markaziy hukumat zaiflashgani sababli, Buxoro amiri Nasrulloxon va amir Muzaffarlarning amalga oshirgan bosqinlari oqibatida o‘troq aholi, ko‘chmanchilar o‘rtasidagi muvozanat buzilgan. XIX asrning 40-yillaridan yarim ko‘chmanchi va ko‘chmanchi bo‘lgan etnik guruhlar siyosiy maydonga chiqib, xonlik barham topganidan keyingi davrgacha boshboshdoqlikning va beqarorlikning asosiy omiliga aylangan. Ayniqsa, xonlikning Farg‘ona vodiysi hududlarida, uning sharqiy tomonlarida qipchoq-qirg‘iz etnoslarining joylashuvi, ularning xonlik siyosiy hayotiga katta ta’sir qilgani bilan ajralib turgan. XIX asrning 40-yillaridan, hamda XIX asrning 60-70-yillarida ularning xonlik siyosiy hayoti va ijtimoiy munosabatlariga ta’siri yanada kuchayganligi tadqiqot doirasida ochib berildi.

11. Xonlik hududlarida bo‘lgan turli siyosiy va harbiy to‘qnashuvlar aholi tarkibi, ko‘chishlari, turmush tarziga katta ta’sir qilgan. Buning ustiga tibbiy xizmat bo‘lmaganligi, ekologik vaziyatning og‘irligi (suvsizlik, qurg‘oqchilik, sug‘orish tizimining xarobliligi), epidemiyalar aholi sonining ortib borishi, o‘limi, ijtimoiy himoyaning umuman bo‘lmaganligi ham etnik manzaraga salbiy ta’sir ko‘rsatgan.

Mazkur tadqiqot atroflicha tahlil qilinib, Qo‘qon xonligidagi tarixiy demografik jarayonlarni o‘rganishni takomillashtirish maqsadida quyidagi taklif va tavsiyalar ilgari surildi:

1. Bugungi kunda Qo‘qon xonligi tarixiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda xonlik tarixining turli masalalari yoritilgan bo‘lib, kelajakda mazkur davlatning siyosiy-

iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy masalalarini o‘zida mujassamlashtirgan entsiklopediya yaratish;

2. “O‘zbek davlatchiligida Qo‘qon xonligining tutgan o‘rni” mavzusida ilmiy-amaliy konferentsiyalar o‘tkazish;

3. “Farg‘onaga ziyorat” nomi ostida ichki va xorijiy turizmni rivojlantirish maqsadida elektron platforma yaratish;

4. “Qo‘qon xonligi etnik tarkibi” mavzusida Atlas kitobini yaratish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ PhD.03/31.03.2021.Tar.05.05 ПРИ
ФЕРГАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**КОКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ
ИНСТИТУТ**

РУЗМАТОВА ШАХОДАТ АБДУКАХХАРОВНА

**ИСТОРИЧЕСКАЯ ДЕМОГРАФИЯ КОКАНДСКОГО ХАНСТВА
И ЕГО ОСОБЕННОСТИ (1709-1876 г.г.)**

07.00.01 – История Узбекистана

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ИСТОРИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Фергана – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по историческим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за номером B2023.2.PhD/Tar1454.

Диссертация выполнена в Кокандском государственном педагогическом институте.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на веб-странице Научного совета (www.fdu.uz) и на Информационно-образовательном портале Ziyonet (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Шадманова Санавар Базарбаевна
доктор исторических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Эркузиев Анварджан Ашурович
кандидат исторических наук, доцент

Вохидов Шодмон Хусейнович
доктор исторических наук, профессор

Ведущая организация:

Андижанский государственный университет

Защита диссертации состоится «25» 12 2024 года в 9:00 часов на заседании Научного совета PhD.03/31.03.2021.Tar.05.05 по присуждению ученых степеней при Ферганском государственном университете (Адрес: город Фергана, улица Мураббийлар, Ферганский государственный университет, факультет Истории, 2 этаж, зал заседаний. Тел.: (99873) 244-44-02; факс: (99873) 244-44-93; e-mail: fardu_info@umail.uz, Ферганский государственный университет).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ферганского государственного университета (зарегистрирована за № 430). (Адрес: 150100, г. Фергана, ул. Мураббийлар, 19. Здание ИРЦ. Тел.: (99873) 244-44-94).

Автореферат диссертации разослан «11» 12 2024 года.
(реестр протокола рассылки № 39 от «11» 12 2024 года).



Б.А.Усмонов

Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней,
доктор исторических наук, профессор

Н.О.Алимова

Ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней,
доктор философии по историческим
наукам, доцент

М.Г.Абдуллаев

Председатель научного семинара при
Научном совете по присуждению
ученых степеней, доктор
исторических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы исследования. В условиях происходящей во всем мире глобализации важное значение приобретают сбор и анализ демографических сведений, осуществление специальных изысканий. Поскольку любые политические, социальные, экономические процессы связаны с демографическими особенностями и оказывают свое влияние на жизнь общества во всех государствах. Рост численности населения, колебания уровня рождаемости через определенное время отражаются на формировании систем образования и здравоохранения, занятости на рынке труда, расходах государства на социальную сферу. Поэтому изучение демографических процессов и факторов, определение проблем, прогнозирование решений и перспектив все более приобретают характер необходимости.

В ряде ведущих высших образовательных учреждениях и научно-исследовательских институтах мира глубоко изучаются такие вопросы, как численность населения, ее увеличение или уменьшение в различные исторические периоды, географическое распределение населения, его состав и факторы. В частности, в США и многих государствах Западной Европы изучаются исторические демографические процессы, проводятся многочисленные исследования, посвященные совершенствованию информационных, геоинформационных систем, документирующих и изображающих результаты относящиеся к их региону. В настоящее время научное исследование таких демографических особенностей, как численность, возраст населения определенного региона, страны, мира, признается в качестве одного из важных направлений политики многих государств. Поэтому важное значение приобретает дальнейшее углубление научно-теоретических знаний, относящихся к демографическим процессам, их исследование в срезе исторических периодов.

Все осуществленные в Узбекистане политические, социальные, экономические, культурные изменения были направлены на повышение уровня жизни населения, улучшение его трудовой деятельности, защиту прав и свобод, благосостояние народа. Осуществляемые в настоящее время в Узбекистане масштабные реформы служат дальнейшему развитию социально-политической жизни страны. Вместе с тем в стране уделяется внимание вопросам роста численности населения, его значению и демографическим процессам, важное значение приобретает изучение, анализ и обобщение их научных основ, факторов и исторических корней. Поскольку, как утверждает Президент Республики Узбекистан Ш.Мирзиёев, “Существовавший в истории нашей страны каждый государственный строй, любой социальный процесс - будь то победа или поражение, восхождение или упадок - является неотъемлемой и органически связанной частью сложного исторического пути, пройденного нашим народом. Поэтому нам необходимо принимать все этапы нашей истории целостно, изучать их всесторонне и глубоко. Народ, черпающий силы из прошлых достижений и

побед и извлекающий уроки даже из поражений, может правильно определить свой путь развития и будущее”¹.

Настоящая диссертация в определенной степени служит выполнению задач, намеченных в Указах и Постановлениях Президента Республики Узбекистан УП-60 от 28 января 2022 года “О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 – 2026 годы”, ПП-2789 от 17 февраля 2017 года “О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности академии наук, организации, управления и финансирования научно-исследовательской деятельности” и постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан № 448 от 24 декабря 2002 года “О создании Центра демографии и изучения потребительского рынка” и других нормативно-правовых актах.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертация выполнена в рамках приоритетного направления науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей социального, правового, экономического, культурного, духовно-просветительского развития информационного общества и демократического государства и пути ее реализации».

Степень изученности проблемы. Литературу, относящуюся к теме, в соответствии с ее периодическим и методологическим характером можно условно разделить на следующие группы. В частности, в первую группу можно включить исследования периода господства Российской империи и советской власти. Вторую группу составляют исследования, изданные в годы независимости. Третья группа состоит из трудов зарубежных исследователей.

В относящихся к первой группе трудах Ф.Назарова, В.Вельяминова-Зернова, А.К.Гейнса, А.Ф.Миддендорфа, А.П.Хорошхина, И.Краузе, Н.Н.Пантусова, А.Куна², В.П.Наливкина и М.Наливкиной³, и других

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. (Стратегия Нового Узбекистана). – Тошкент: O‘zbekiston, 2021. – Б. 288.

² Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях средней части Азии. Изд. 1. – СПб, 1821, 38 с., Изд. 2, СПб, 1873. Изд. 3. – Москва, 1968; Вельяминов-Зернов В. Исторические известия о Кокандском ханстве, от Мухаммеда Али до Худаярхана // Труды Восточного отделения Русского Археологического Общества, 1856, часть 11; Он же. Сведения о Кокандском ханстве. // Известия русского географического общества (кейинчалик ИРГО), 1856, кн. V, гл. XVIII; Гейнс А. К. Дорога из Семипалатинской крепости в Кашгар, Коканд и Ташкент // ИРГО, 1856, кн. X; Он же. Управление Ташкентом при Кокандском владычестве // Собрание литературных трудов. Т. II. – СПб, 1898. – 105 с.; Он же. Дневник 1866. Путешествие в Туркестан // Собрание литературных трудов. Т. II. СПб, 1898. – 431 с.; Миддендорф А. Ф. Очерки Ферганской долины. – СПб, 1862; Хорошхин А. П. Из дорожных заметок. От Ташкента до Коканда // Русский инвалид, 1868, №112, 209. ТС, т. 7; Он же. Заметки о Кокане // Русский инвалид, 1869, №75, 76. ТС, т.-23; Он же. Очерки Коканда // Туркестанские ведомости, 1872, №35; Он же. Орывки из дневника “Кокань” в 1867-1868 г. Туркестанские ведомости. 1874, №13; Федченко А. П. Доклад о путешествии в Кокандском ханстве // ИРГО, т. VIII (1872, отд.); Он же. Извлечение из сведений и путешествий по Кокандскому ханству в 1871 // ИРГО, 1872, т. 8, №1 // Русский вестник, 1872, т. 98, № 4; Он же. Из Коканда // Ежегодник Туркестан. Края. – СПб, 1873, вып. 2. ТС, т. 60; Он же. Обижуаз-писчебумажная фабрика в Коканде. В кн: Русский Туркестан. Сборник изданий по поводу политехнической выставки. – Москва, 1872. Вып. 2; Он же. Путешествие в Туркестан. – Москва: Географ. Изд., 1950; Краузе И. О нефтяных источниках в Кокандском ханстве // Русский Туркестан. вып. 2. ТС, 1872. т. 57, т. 60; Пантусов Н. Н. О тарихи Шахрухи и других рукописях Кокандского ханства // Туркестанские ведомости, 1876, №28, 30, 37; Он же. О податях и повинностях, существовавших в бывшем Кокандском ханстве и последнее время правления Худаярхана // Туркестанские ведомости, 1876, №16; Он же. Данные об истории Ферганы в XIX в. // ИРГО по отделение этнографии, 1880,

приведены в основном сведения о социально-политической, экономической жизни Кокандского ханства, а также уровне роста населения ханства, занятости, миграционных процессах, образе жизни народа, земледелии, землевладельческих, торговых отношениях, обычаях и обрядах населения.

Среди приведённых выше авторов сведения, приведённые Ф.Назаровым, А.П.Хорошхиным, А.П.Федченко, представляют особое значение. Например, Ф.Назаров писал об истории, культуре, архитектуре, занятиях населения, семейных отношениях и обычаях Кокандского ханства⁴, а А.П.Хорошхином приведены ценные сведения об экономической, культурной жизни, образе жизни населения и этнографии⁵, а А.П.Федченко описал экономическую и культурную жизнь населения Кокандского ханства, уровень занятости, карту ханства и другие сведения⁶.

